

«Xulosalash» metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu metod umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muvaffaqiyatli qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

Bu metod mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- ✓ mashg‘ulot boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- ✓ mavzuni o‘rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- ✓ yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- trener-o‘qituvchi o‘quvchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan o‘quvchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

1- Namuna Ximiya fanidan «Rangli metallar» mavzusida

Metallar							
Mis		Oltin		Kumush		Alyumniy	
+	-	+	–	+	–	+	–
Xulosa:							

2. Namuna «Gigiyena» fanidan

Chiniqish turlari					
Quyoshda toblanish		Suv havzalarida cho‘milish		Sayr qilish	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

3. Namuna «Ingliz tili» fanidan

Sayohatga chiqish
